

Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi – 2020-yil yanvar oyida

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020-yil yanvar oyida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi

675,2 mlrd. so'm



Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmining
o'sish sur'atlari

115,2 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmining
o'sish sur'atlari

112,7 %



Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi


259,7 ming so'm

Xizmatlar sohasi — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.


Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinlarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruv bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohaslariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 19,6 mingtaga yetdi.



Xizmatlar sohasida jami 19,6 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 23,9 % ga oshdi.



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 66,9 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilayotgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi -13,8 %, qurilish - 11,8 % ga yetdi va atiga 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (41,1 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,9 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: 2019-yil 1-fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 5,0 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 36,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,1 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 2,6 %, boshqa turlar - 43,1 % ni tashkil etgan.


O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,8 mingtaga ko'paydi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Surxondaryo viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 675,2 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,2 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, savdo (278,2 mlrd. so'm), transport xizmatlari (92,5 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (138,0 mlrd. so'm) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (30,6 mlrd. so'm) hajmi oshdi.

2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



2020-yil yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (122,4 %), Denov (112,7 %), Angor (111,6 %), Uzun (111,2 %), Oltinsoy (110,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Boysun (107,1 %), Sho'rchi (108,5 %), Sariosiyo (108,6 %), Muzrabot (108,9 %), Termiz (109,3 %), Qumqo'rg'on (109,5 %), Sherobod (109,6 %), Qiziriq va Jarqo'rg'on (109,7 %) tumanlarida kuzatildi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir

2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surhondaryo viloyati	675,2	115,1
Termiz sh	289,8	122,4
tumanlar:		
Oltinsoy	18,7	110,2
Angor	18,2	111,6
Boysun	13,9	107,1
Muzrabot	29,1	108,9
Denov	112,7	112,7
Jarqo'rg'on	26,0	109,7
Qumqo'rg'on	23,2	109,5
Qiziriq	24,7	109,7
Sariosiyo	27,6	108,6
Termiz	17,8	109,3
Uzun	18,0	111,2
Sherobod	30,5	109,6
Sho'rchi	24,9	108,5

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahri (289,9 mlrd. so'm) va Denov tumaniga (112,7 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Boysun (13,9 mlrd. so'm) va Sho'rchi (24,9 mlrd. so'm), tumanlarida kuzatildi.

Ko'rilayotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Termiz shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 79,5 mlrd. so'mga oshdi va 289,9 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Denov (112,7 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -
259,7 ming so'm

2019-yil yanvar oyiga nisbatan




O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 259,7 ming so'mga oshdi va 54,9 ming so'mga teng bo'ldi, uning o'sishi 12,7 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda postindustrial axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmatlar sohasining roli tobora oshib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining rivojlanishi - jamiyatning muvaffaqiyatli ravnaq topishiga asosdir. Ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar xizmatlar sohasining o'sish omili hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'lim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengayib boradi.

2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlar

Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu aholi soni hisoblanadi. Aholi soni kam bo'lgan hududlarda, aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi yuqori. Masalan, Qumqo'rg'on tumanida 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra aholining soni 240,9 ming kishini tashkil qildi, 2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 96,4 ming so'mga yetdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 1984,0 ming so'm qayd etildi. 2019-yil yanvar oyiga nisbatan o'sish 21,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Qumqo'rg'on tumanida – 96,4 ming so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 106,9 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari, % (2020-yil yanvar oyida)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Boysun (105,1 %), Sho'rchi (106,0 %), Sariosiyo (106,3 %), Termiz (106,4 %), Muzrabot (106,7 %), Qiziriq (106,8 %), va Qumqo'rg'on (106,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahri (121,0 %), Denov (110,1 %), Angor (108,9 %), Uzun (108,7 %), Oltinsoy (107,6 %), Jarqo'rg'on (107,3 %) va Sherabod (107,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi - zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tizimni tashkil etuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qo'shilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish omili, o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (64,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (12,6 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (47,1 mlrd. so'mga) va ta'lim sohasidagi (8,1 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi hisoblanadi.

Bundan tashqari, me'morchilik sohasidagi xizmatlar (1,6 mlrd. so'mga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (3,0 mlrd. so'mga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2,8 mlrd. so'mga), shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,8 mlrd. so'mga) hajmining o'sishi kuzatildi.

Deyarli barcha hududlarda bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy va transport xizmatlari, savdo va aloqa xizmatlari, shu jumladan axborotlashtirish kabi xizmatlar ulushining o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar oyida ularning ulushi 41,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (20,4 %), transport xizmatlari (13,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (4,5 %) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % (2020-yil yanvar oyida)





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,0 % ga yetdi. Shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,1 %, shuningdek ijara xizmatlari - 2,4 % bo'yicha uncha yuqori bo'lmagan ulush qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2020-yil yanvar oyida)

	Hajm, mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	675,2	115,2
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	30,6	167,6
Moliyaviy xizmatlar	138,0	167,6
Transport xizmatlari	92,5	104,1
<i>Shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	88,2	103,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	19,5	107,8
Savdo xizmatlari	278,2	105,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17,5	104,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	20,2	140,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	7,1	119,1
Ijara xizmatlari	15,8	100,2
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	16,3	104,8
Shaxsiy xizmatlar	16,8	104,4
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	7,1	113,1
Boshqa xizmatlar	15,6	103,4

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da (2020-yil yanvar oyida)




Taqqoslash uchun, 2019-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'atlari - 167,6 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar - 140,4 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar- 119,1 %, me'morchilik sohasidagi xizmatlar-113,1 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlar-112,3 %.

Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

Surxondaryo viloyatida transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Jami ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni transport xizmatlari (13,7 %) egallaydi.

2020-yil yanvar oyida shahar va tumanlar bo'yicha avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi (avtomobil xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan), %



Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni yetkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

Aholi daromadlarining o'sishi bilan iste'mol talablari va tovar ayirboshlash ko'lami o'sib bormoqda.

2020-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 278,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 41,2 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (111,5 mlrd. so'm), Denov (33,7 mlrd. so'm), Sherabod (16,2 mlrd. so'm), Muzrabot (15,6 mlrd. so'm), Sariosiyo (12,6 mlrd. so'm), Sho'rchi (12,1 mlrd. so'm), Qiziriq (12,1 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatildi.

Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Boysun tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 6,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboyeva

Tel: (71) 230-85-84



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Dastlabki ma'lumotlar